

BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING YANGI YECHIMLARI

Kengeshbayeva Ozoda Anvar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

[*kengeshbaevaozoda@gmail.com*](mailto:kengeshbaevaozoda@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklarni raqamlashtirish uchun qilingan chora-tadbirlar yoritilib beriladi. Bundan tashqari innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda birqancha bank xizmatlarini masofaviy tarzda amalga oshirishning afzal jihatlari haqida aytib o'tiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan raqamli banklar bo'yicha tahlil olib boriladi va ular ko'rsatgan natijalar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli banklar, raqamli innovatsiyalar, masofaviy omonatlar, masofaviy kreditlar, mobil ilovalar, aloqa markazlari, transformatsiya.

Аннотация: В данной статье освещены меры, принимаемые по цифровизации банков. Кроме того, упомянуты преимущества дистанционного внедрения некоторых банковских услуг с использованием инновационных банковских технологий. Будет посещен анализ цифровых банков, действующих в Узбекистане сегодня, и будет дана информация о результаты, которые они показали.

Ключевые слова: цифровые банки, цифровые инновации, дистанционные депозиты, дистанционные кредиты, мобильные приложения, контакт-центры, трансформация.

Abstract: This article highlights the measures taken to digitize banks. In addition, the advantages of remote implementation of some banking services using innovative banking technologies are mentioned. An analysis of digital banks operating in Uzbekistan today will be visited and information will be given about the results they have shown.

Keywords: digital banks, digital innovations, remote deposits, remote loans, mobile applications, contact centers, transformation.

KIRISH

Hozirgi kunda bank xizmatlarini raqamlashtirish va tizimni yanada soddalashtirish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda bank xizmatlarining raqamlashuvi nafaqat iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi, balki, jismoniy va yuridik shaxslarga ham birqancha qulayliklar yaratib beradi. O'zbekiston banklari raqamlashishga qadar uzoq evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Hozirgi kunda yurtimizda tizimli ravishda an'anaviy bankdan raqamli bankka o'tilmoqda. Raqamli banklarga foydalanuvchilarni jalb qilish uchun eng avvalo ularning raqamli banklarga

bo'lgan ishonchini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulay xizmatlarni taklif qilish eng muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolad raqamli banklarni jadal rivojlantirish va aholining bu bo'yicha savodxonligini oshirish uchun qilinayotgan chora-tadbirlar borasida so'z boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 30-iyunidagi 22/5-sonli qaroriga ko'ra "Raqamli bank-innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi" deb tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF5296-sonli farmoni imzolanganach, bank tizimida bank xizmatlariga yo'naltirilgan "raqamli" banklar va bank bo'limlarini tashkil etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mijozlarga qulay va sifatli xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha vazifa yuklatilgan[1]. Raqamli banklarning tashkil etilishi foydalanuvchilar uchun ko'plab qulayliklar yaratdi. Endilikda mijozlarga ularning vaqtini va mablag'larini tejagan holda sifatli xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Raqamli banklarning an'anaviy banklarga qaraganda qulay va ustun jihatlari quyidagilardan iborat:

- ortiqcha hujjatlarning talab etilmasligi;
- bank filiallari tarmog'ining kengaytirilmasligi;
- bank va mijoz o'rtasida masofaviy aloqa tizimining 100% o'rnatilganligi;
- an'anaviy banklarga nisbatan solishtirganda sezilarli darajada inson omili qatnashmasligi;
- mijozlar uchun sifatli va qulay bo'lgan mobil ilovalar mavjudligi;
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimda javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;
- xizmatlarning tannarxi arzon bo'lishi (ya'ni bino, kompyuter va boshqa jihozlar ortiqcha talab etilmasligi);
- bozor talablariga javob beradigan omonatlar va kreditlarning mavjudligi[2];

Raqamli banklarning hozirgi kunda jadal rivojlanishi faqatgina mijozlar uchun ko'plab qulayliklarni vujudga keltirmoqda. Bundan tashqari tijorat banklarining raqamlashuvi ortiqcha mablag'larni kamaytiradi va natijada banklar ko'proq foyda olib, o'z tizimini yanada rivojlantiradi. Bir gap bilan aytganda, raqamli banklar ko'proq daromad olish uchun imkoniyat yaratadi. Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolanganach, raqamli banklar tashkil etish va innovatsion bank

texnologiyalari yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatish vazifasi yuklatilgan[3]. O'zbekistonda birinchi raqamli banklar "ANOR BANK" va

"TBC bank" bo'lib hisoblanadi. Ular 2020-yilning sentyabr oyidan boshlab o'z faoliyatlarini boshlagan va bugungi kungacha ko'plab zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. "ANOR BANK" hozirda o'z mijozlariga mobil ilovalar orqali o'z xizmatlarini taqdim qilmoqda. Bu degani, har bir foydalanuvchi 24/7 vaqt tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

"ANOR BANK"ning mobil ilovasida quyidagicha imkoniyatlar mavjud:

- Kartalarni buyurtma qilish va yetkazib berish
- Kartalarni bloklash
- Hisob raqamlar va kartalar o'rtasidagi o'tkazmalar
- Aqlli o'tkazmalar
- Xizmatlar bo'yicha to'lovlar
- Omonatlarni boshqarish
- Avtoto'lovlar
- Kartalar bo'yicha ma'lumotnoma va hokazolar[4].

NATIJA

"ANOR BANK" rivojlanish strategiyasi asosida quyidagicha natijalarga erishdi:

- O'zbekiston Respublikasi bo'ylab mijozlarga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi;
- Bu jamoadagi xodimlar soni 850 taga yetdi;
- Hamkorlar soni 2500 tadan oshdi;
- Bank ilovasi 270 000 marta yuklab olindi;
- 100 000 bank kartasi chiqarildi;
- Depozitlar uchun jismoniy shaxslardan 350 mlrd so'm jalb qilindi;
- Tashkilotlar umumiy hisobda 20 mlrd so'm nominalli oylik maoshlarini shu bank orqali o'tkazishdi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, banklarning raqamlashuvi bank mijozlari uchun judayam ko'p imkoniyatlarni taqdim qiladi. Bu faqatgina banklarning mijozlarini oshirishga emas, balki, butun mamlakat iqtisodiyotiga, moliyaviy pul aylanmalariga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari mijozlarning mablag'i va vaqti tejaladi. Inson omili kam qatnashadi natijada hechqanday tanish- bilishchilik amalga oshmaydi. Bank mijozlaridan ortiqcha hujjatlar talab qilinmaydi. Bir so'z bilan aytganda, banklarning raqamlashuvi bu juda muhim ahamiyatga ega. Bunda juda katta transformatsiya jarayoni amalga oshiriladi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi, aholi savodxonligining oshirilishi talab qilinadi[5]. Qolaversa, banklar xizmatining sifati oshadi va har ikkala tomon ham o'z vaqtlarini va mablag'larini tejaydi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, bugungi kunda raqamli banklar tomonidan mijozlarga berilayotgan takliflarga talab tobora oshib bormoqda va bank

tomonidan taqdim qilinayotgan xizmatlar mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda. Shu sababli ham hozirgi kunda raqamli bank mijozlari yanayam oshib bormoqda. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish bugungi kunda zamon talabiga aylanib bormoqda va bu albatta o'zini oqlaydi.

REFERENCES

- [1] <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzalliklari>
- [2] “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.
- [3] <https://lex.uz/docs/-3494933#-3495832>
- [4] <https://lex.uz/docs/-1703778>
- [5] <https://www.infobooks.org/free-pdf-books/business/economics/>